

## **Gulxaniyning „Zarbulmasal” asarini o‘qitishda hamkorlikda ishlash texnologiyasidan foydalanish**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat**

**O‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

**f.f.n. Abdullayeva Marg‘uba**

Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P. Pirogov, L.N. Tolstoy, J.J. Russo, Ya. Korchak, K. Rodjers, E. Bern, S.T. Shatskiy, V.A. Suxomlinskiy va boshqalardir.

Viktor Fedorovich Shatalov hamkorlik texnologiyalarining bir qancha ko‘rinishlarini ishlab chiqdi va ta’limga joriy qildi. U o‘qitishning an’anaviy sinfdars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi.

Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qurish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, hamkorlik texnologiyasini Gulxaniyning „Zarbulmasal” asari misolida o‘rganib chiqamiz.

**O‘qituvchi:** Darsning shiorini yoshlarga qanday bog‘liqlik tomoni borligini so‘raydi. Guruhni 3 ta kichik guruhga bo‘ladi. Ularni „Yaxshilik”, „Do‘stlik” „Sabr-qanoat” deb nomlaydi. Gulxaniyning hayoti va ijodi bo‘yicha guruhlariga umumiy savollar beradi.

1. Gulxaniy qanday taxalluslarda ijod qilgan?
2. Gulxaniyning ijodiy merosi haqida gapiring?
3. Gulxaniy yashagan ijtimoiy muhit haqida nimalarni bilasiz?
4. Gulxaniy qaysi xonlikda askar bo‘lib xizmat qilgan.
5. Gulxaniyni 50 yoshda vafot etganligi haqida kim ma’lumot bergan.
6. Gulxaniyni asli ismini ayting?

**O‘qituvchi:** Bunda o‘quvchilarga Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari haqida ma’lumot beradi.

Gulxaniyning ushbu asari majoziy uslubda yozilgan. Gulxaniy bu asarida hayotning dolzarb muammolari, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, xalqning turmush tarzi va bo‘layotgan voqealarni ramziy obrazlar (qushlar) orqali tasvirlab bergan. Asardagi asl voqealar Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligiga qaratilgan. Ikki yurt ham tinch emas edi. Xonning atrofini asardagi qushlar singari luqmaga o‘ch, ulfatchilikka berilgan, faqat o‘zini o‘ylaydigan odamlar o‘rab olgani va bir kun kelib mamalakat vayronaga aylanishi haqida gapirgan.

Gulxaniy o‘zbek masalchiligi tarixida alohida o‘ringa ega. Uning “Maymun bilan Najjor” masalida qo‘lidan kelmagan ishga uringan kishi. „Toshbaqa bilan Chayon” masalida do‘st tanlashda adashmaslik kerakligiga e’tibor qaratiladi.

„Tuya va Bo`taloq”da esa o`z erki qo`lida bo`lmagan kishilarning fojiasi tasvirlanadi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari orqali o`zbek xalqining purma`no maqollari bizgacha yetib kelgan.

Bugun biz “Zarbulmasal” asaridan “Yapaloqqush” hikoyasini o`qiymiz va tahlil qilamiz. O`qituvchi hikoya mazmuni bilan o`quvchilarni tanishtiradi. Boyo`g`li, Yapaloqqush, Ko`rqush kabi obrazlarga tavsif beradi.

**O`qituvchi:** mustahkamlashdan oldin yozuv taxtasiga

- 1) Vaqtga rioya qilish;
- 2) Intizom;
- 3) O`zgalar fikrini hurmat qilish;
- 4) Erkin fikrlay olish;
- 5) Hamkorlikda ishlash;

Jumlalari osib qo`yiladi.

**1-ilova:** Kuch birlik”da metodidan foydalanamiz. Bunda 3 ta guruhga ham alohida-alohida savollar yozuv taxtasiga osib qo`yiladi. Har bir savol ustiga raqamlar yozilgan bo`ladi. Barcha o`quvchilar o`yinda ishtirok etishi va savollarga javob berishi shart.

**„Kuch birlikda”**

Guruhlar barcha savolga javob berishsa 12 ballni qo`lga kiritishadi.

**„Do`stlik”**guruhiga berilgan savollar.

- 1) Gulxaniyning merosi?
- 2) Boyqushning tabiati?
- 3) Gulxaniyning asl ismi?
- 4) “Zarbulmasal”da uchraydigan obrazlarni nechta guruhga bo`lish mumkin?
- 5) Qaysi qush davlatmand kishi timsoli?
- 6) Asardagi xonlik nomini ayting?

**„Sabr-qanoat”**guruhi

- 1) “Zarbulmasal” so`zining ma`nosini ayting?
- 2) “Zarbulmasal”da inson ruhiyati qanday tasvirlangan?
- 3) Gulxaniydan bizgacha yetib kelgan she`rlari soni?
- 4) Gulxaniy “Zarbulmasal”da nechta masal keltirilgan?
- 5) “Zarbulmasal” asari kimning buyrug`i bilan yozilgan?
- 6) Mehmonga sarqit ovqat taklif etib, uning ham ko`pini o`zi yeb qo`ygan befarosat qush?

**„Yaxshilik”**guruhi

- 1) Gulxaniy haqida kimlar ma`lumot bergan?
- 2) “Zarbulmasal”da uchraydigan badiiy obrazlarni nechaga bo`lish mumkin?
- 3) Gulxaniy Yapaloqqush timsolida qanday kimsa obrazini yaratgan?
- 4) Boyqush qizining ismi?
- 5) “Orazidin shamsu qamardir hijil?  
So`zlaridin shahdu shakar munfail”, - ta`rifi qaysi obrazga tegishli?
- 6) Boyqushning tabiati?

**2-ilova. „Sirli raqamlar” o`yinini o`tkazamiz.** Bu o`yinni javobini topishda alfavitdan foydalanamiz. Katakchalarga raqamlar joylashtiriladi va raqamlar ostidagi harflar topiladi. Shunda raqamlar ostiga yashiringan “Yapaloqqush” hikoyasidagi hikmatli so`z kelib chiqadi.

14	25	14	16	23	20	6	20	17	8	6	8	14	27	16	1	14
26	8	22	23	20	6	20	17	8	6	8	2	14	27	16	1	

**Javob:** Oyoq yugurigi oshga

Og`iz yugurigi boshga

**3-ilova: “Davom ettir...”** metodidan foydalanamiz. Bunda ”Yapaloqqush” hikoyasidan maqollar va hikmatli so`zlar to`liq yozilmagan holda taqdim etiladi. O`quvchilar bilimlariga tayanib maqollarni davom ettirishadi.

- 1) Qalb qozoni qaynamas, .....
- 2) Yaxshilik qil, suvga sol, .....
- 3) Oti ulug`, ....
- 4) Sichqon sig`mas iniga, ...
- 5) Chumchuq semirsa,....
- 6) Chumchuq semirsa...
- 7) Cho`bni xor tutsang...
- 8) Po`lat pichoq ...
- 9) Yomonga yondoshsang...
- 10) Sungan bo`yinni qilich...
- 11) To`yga borsang.....
- 12) Daraxtni o`zga joyga o`rnatsalar....
- 13) Egasini siylagan itga so`ngak...
- 14) Bosh eson bo`lsa, ...
- 15) Ertangi ishni kechga....

**4-ilova: „Hammasi bizning qulimizda”** metodidan foydalaniladi.

3 ta guruhga ham qushni 3 ta qismga bo`lib o`quvchilarga beriladi. Har bir bo`lak ortiga "Yapaloqqush" hikoyasida uchraydigan notanish so`zlar lug`ati yozilgan. Qaysi guruh qush bo`laklaridagi so`zlar ma`nosini topsa, qush shaklini yasasa, o`sha guruhning qushi birinchi bo`lib uchadi. Agar qushning biror bo`lagi joylashtirilmay qolsa, o`sha guruhning qushi parvoz qila olmay halok bo`ladi.

Qushning **bosh** qismiga yozilgan so`zlar

- 1) Rayohin-
- 2) Tamanno-
- 3) G`arqob
- 4) Alomati bulug`-

**Bel** qismidagi so`zlar

- 1) Munfail-
- 2) Mehri xovariy-
- 3) Yog`och-
- 4) Taanniy-

**Dum** qismidagi so`zlar

- 1) Xirad-
- 2) Salotin-
- 3) Minqor-
- 4) Huzn-

„Kuch birlikda”, „Davom ettir...”, „Sirli raqamlar” o`yini, „Hammasi bizning qulimizda” metodlaridan foydalanish pedagogik hamkorlikning maqsadli yo`nalishlarini, jumladan, pedagogik talabdan pedagogik munosabatga o`tish, bolaga insoniy va shaxsiy yondashuv, ta`lim-tarbiya birligini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari, hamkorlikda o`qitish orqali shaxsga yondashuvning besh yo`li – sevish, tushunish, qabul qilish, kirishish, hamdardlik, yordam berish kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, hamkorlikda o`qitish – bu o`qituvchining ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchilar guruhi, butun sinf bilan o`zaro samarali hamkorligini tashkil qilishi bilan birgalikda, o`quvchilarning o`zaro qo`llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan texnologiyadir. O`quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida kichik guruhlarda ishlashadi va o`zlariga hamda o`z guruhlaridagi o`rtoqlariga birgalikda yordam berishadi.

#### **Metodik adabiyotlar:**

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2005.
2. Tolipov O., Usmonxo`jaeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.: FAN. 2006 yil.

3. N.Saidahmedov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.  
T.:2002 yil.